

## V. XIZMATLAR



Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko‘rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Xizmatlarning xilma-xilligi aholining katta qismini hayot sifatini va farovonligini yaxshilash imkonini beradi.



### Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan) bozor xizmatlarining hajmi

	<i>Miqdori, (mlrd.so‘m)</i>	<i>O‘shish sur‘ati, foiz</i>	<i>Jamiga nisbatan foizda</i>
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>7 072,1</b>	<b>107,7</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan asosiy turlari bo‘yicha:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	350,8	119,3	5,0
moliyaviy xizmatlar	1 944,5	110,7	27,5
transport xizmatlari	1 008,9	103,6	14,3
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	970,0	100,7	13,7
yashash va ovqatlanish xizmatlari	232,5	104,4	3,3
savdo xizmatlari	2 004,7	105,5	28,3
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	128,9	102,1	1,8
ta‘lim sohasidagi xizmatlar	311,1	110,3	4,4
sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	139,2	103,8	2,0
ijara xizmatlari	110,6	74,2	1,6
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar	174,3	103,4	2,5
shaxsiy xizmatlar	202,4	102,2	2,8
me‘morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	92,1	105,1	1,3
boshqa xizmatlar	372,1	135,6	5,2

Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari (28,3%), moliyaviy xizmatlar (27,5 %), transport xizmatlari (14,3 %) hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,0 %) tashkil etadi.


Xizmatlar umumiy hajmida past ulushlarni me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (1,3 %), ijara xizmatlari (1,8 %) hamda ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (1,8 %) egalladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibining o'sish sur'atlari, % da


(2023 yil yanvar-sentabr oylari uchun)

2021-yil yanvar-sentabr 2022-yil yanvar-sentabr 2023-yil yanvar-sentabr






Xizmatlar tarkibida mulkchilik shakllari ulushlarining o'zgarish dinamikasi, % da



■ 2021 yil yanvar-sentabr ■ 2022 yil yanvar-sentabr ■ 2023 yil yanvar-sentabr

Bozor xizmatlarining umumiy hajmida savdo xizmatlari eng yuqori ulushni (28,3 %) tashkil etdi. Savdo oddiy taqsimlash mexanizmidan iste'molchiga yo'naltirilgan bozor talablarini shakllantirish jarayonlarida faol ishtirokchiga aylandi. Hozirgi vaqtda, savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmining sezilarli qismi hisoblanadi.

Savdo xizmatlari tarkibida chakana savdo (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) xizmatlari yuqori ulushni tashkil etadi – 79,7 foiz, avtomobil ulgurji va chakana savdo xizmatlari 11,1 foiz va ulgurji savdo xizmatlari 9,2 foizni tashkil etdi.





Savdo xizmatlari hajmi va o'sish darajasining hududlar kesimida taqsimlanishi  
(2023 yil yanvar-sentabr)


	<i>Mlrd.so'm</i>	<i>2022 yil yanvar-sentabriga nisbatan foiz</i>	<i>Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, foizda</i>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>2 004,7</b>	<b>105,5</b>	<b>100,0</b>
<i>shahar:</i>			
Jizzax	465,2	105,6	23,2
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	50,6	100,3	2,5
Baxmal	209,3	101,1	10,4
G'allaorol	276,2	107,5	13,8
Sharof Rashidov	217,7	107,4	10,9
Do'stlik	106,7	106,8	5,3
Zomin	205,0	104,5	10,2
Zarbdor	98,2	100,4	4,9
Zafarobod	52,0	99,2	2,6
Mirzacho'l	63,0	101,2	3,1
Paxtakor	121,5	126,1	6,1
Forish	115,7	102,0	5,8
Yangiobod	23,6	98,4	1,2

Savdo xizmatlari hududlar bo'yicha tahlil qilinganida, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Paxtakor (126,1 %), G'allaorol (107,5 %), Sharof Rashidov (107,4 %), Do'stlik (106,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari esa, Yangiobod (98,4 %), Zafarobod (99,2 %) va Arnasoy (100,3 %) tumanlarida qayd etildi.



Savdo xizmatlarining umumiy hajmida hududlar ulushi, % da  
(2023 yil yanvar-sentabr)




Savdo xizmatlari bo'yicha yuqori ulushga ega bo'lgan hududlar Jizzax shahri (23,2 %), G'allaorol (13,8 %), Sharof Rashidov (10,9 %), Baxmal (10,4 %) va Zomin (10,2 %) tumanlari hisoblanadi.

Uncha yuqori ulushga ega bo'lmagan hududlar esa, Yangiobod (1,2 %), Arnasoy (2,5 %), Zafarobod (2,6 %) va Mirzacho'l (3,1 %) tumanlaridir.




Transport xizmatlarining tarkibi, % da  
(2023 yil yanvar-sentabr)



Xizmatlar tarkibida savdo va moliya xizmatlaridan keyin transport xizmatlari ulushi 14,3 % yuqoriligini ko'rish mumkin.

Shuningdek, qayd etish joizki yuklar va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlar hajmi oshishining asosiy omillari – bu yangi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish, sanoat zonalarini tashkil etish va kengaytirish, savdo tarmoqlarini kengaytirish, turizm faoliyatini rivojlantirish hisoblanadi.

Transport xizmatlari tarkibida avtomobil transportining ulushi 96,1 foiz bilan asosiy ustunlikka ega.



**Transport xizmatlari hajmi va o'sish darajasining hududlar kesimida taqsimlanishi (2023 yil yanvar-sentabr)**


	<i>Mrd.so'mda</i>	<i>2022 yil yanvar-sentabriga nisbatan foizda</i>	<i>jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, foiz</i>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>1 008,9</b>	<b>103,6</b>	<b>100,0</b>
<i>shahar:</i>			
Jizzax sh.	172,6	102,8	17,1
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	7,9	7,9	0,8
Baxmal	92,2	92,2	9,1
G'allaorol	82,6	82,6	8,2
Sharof Rashidov	392,1	392,1	38,9
Do'stlik	28,8	28,8	2,8
Zomin	88,5	88,5	8,8
Zarbdor	38,8	38,8	3,8
Zafarobod	9,8	9,8	1,0
Mirzacho'l	20,6	20,6	2,0
Paxtakor	27,9	27,9	2,8
Forish	39,2	39,2	3,9
Yangiobod	7,9	7,9	0,8

Tumanlar o'rtasida transport xizmatlari bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari G'allaorol (106,7 %), Paxtakor (105,6 %), Baxmal (105,4 %) tumanlarida qayd etildi.

Transport xizmatlari bo'yicha uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Yangiobod (100,0 %) va Forish (100,4 %) tumanlarida qayd etildi.



**Transport xizmatlarining umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da**  
(2023 yil yanvar-sentabr)



Transport xizmatlari bo'yicha yuqori ulushga ega hududlar sifatida Sharof Rashidov (38,9 %), Jizzax shahri (17,1 %), Baxmal (9,1 %), Zomin (8,8 %) va G'allaorol (8,2 %) tumanlari qayd etildi.


Axborot texnologiyalarining rivojlanishi zamonaviy insonning turmush tarziga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Yildan-yilga odamlar internet va mobil telefonlardan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirish uchun ko'proq imkoniyatlarga ega bo'lmoqda. Zamonaviy biznesni rivojlantirishda axborot va xizmatlardan real vaqtda masofaviy erkin foydalanish huquqi muhim o'rin tutadi.

Bugungi kunda Jizzax viloyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) davlat boshqaruvi tizimida, iqtisodiyotning tarmoqlarida, ijtimoiy soha va odamlarning kundalik hayotida joriy etishni izchil amalga oshirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

2023 yilning yanvar-sentabr oylarida Jizzax viloyati bo'yicha aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 350,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2022 yilning mos davriga nisbatan aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sishi 119,3 foizni tashkil etdi.



**Jizzax viloyatida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o‘shish sur‘ati, % da**  
(2023 yil yanvar-sentabr)




Jizzax viloyatida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo‘yicha o‘tgan yilning mos davriga nisbatan yanvar-sentabr oyida o‘shish sur‘ati 119,3 % ni tashkil qildi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulush (87,5 %) telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, internet, yo‘ldosh aloqa xizmatlari va h.k.) hissasiga to‘g‘ri keldi.



**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi, % da**  
(2023 yil yanvar-sentabr)



Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va moliya-kredit muassasalari xizmatlari tez rivojlanayotgan xizmat turlari hisoblanadi. Yangi texnologiyalarga va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayanib, bu faoliyat turlari hozirgi vaqtda rivojlanishning yangi bosqichi sifatida paydo bo'ldi va bugungi kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashtirishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.


Ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, AKT sohasida innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida yangi turdagi xizmatlarning paydo bo'lishi aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmini oshirishga ta'sir ko'rsatadi.

Pul-kredit tizimini isloh qilish dasturida bank tizimini barqarorligini ta'minlash, xalqaro standartlarga muvofiq bank faoliyatini yanada takomillashtirish, qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish, bank va sug'urta tashkilotlariga ko'rsatiladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yangi xizmat turlarini joriy etish, moliyaviy xizmatlar hajmini yanada kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Natijada, 2023- yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan moliyaviy xizmatlar hajmi 1 944,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi va o'sish sur'ati 110,7 foizni tashkil etdi.




**Jizzax viloyatida moliyaviy xizmatlarning  
o'sish sur'ati dinamikasi, % da  
(2023 yil yanvar-sentabr)**





**Moliyaviy xizmatlarning tarkibi, % da**  
(2023 yil yanvar-sentabr)



Valyuta siyosatini erkinlashtirish, shuningdek, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish (kredit berish va depozit hisob raqamlarni ochish bo'yicha elektron xizmatlar ko'rsatish) borasida amalga oshirilayotgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmining oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar ulushi (95,2 %) ustunlik qilmoqda. Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta xizmatlarining ulushi 3,4 foizni, yordamchi moliyaviy faoliyat 1,4 foizni tashkil etdi.




Bozor xizmatlari hajmi va o'sish sur'atining hududlar kesimidagi holati

	Jami			Aholi jon boshiga	
	mlrd. so'm	2022 yil yanvar-sentabriga nisbatan foiz	Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, foizda	ming so'm	2022 yil yanvar-sentabriga nisbatan foizda
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>7 072,1</b>	<b>107,7</b>	<b>100,0</b>	<b>4 753,7</b>	<b>105,3</b>
<i>shahar:</i>					
Jizzax	2984,1	110,0	42,2	15 437,7	107,3
<i>tumanlar:</i>					
Arnasoy	114,7	104,7	1,6	2 375,6	103,2
Baxmal	461,1	105,6	6,5	2 741,6	103,2
G'allaorol	577,4	107,8	8,2	3 131,5	105,4
Sharof Rashidov	948,4	104,8	13,4	3 964,9	102,1
Do'stlik	227,8	106,2	3,2	3 286,7	104,4
Zomin	563,2	106,8	8,0	3 185,6	104,3
Zarbdor	250,6	103,4	3,5	2 683,1	101,0
Zafarobod	123,4	103,2	1,8	2 327,4	101,2
Mirzacho'l	196,1	107,7	2,8	3 578,2	106,0
Paxtakor	261,9	116,9	3,7	3 277,7	114,3
Forish	313,0	104,3	4,4	3 209,8	102,6
Yangiobod	50,4	87,8	0,7	1 704,1	86,6

Xizmatlar sohasining rivojlanishida eng katta ulush Jizzax shahri (42,2 %), Sharof Rashidov (13,4 %) va G'allaorol (8,2 %) tumanlarda kuzatildi.



**Jizzax viloyati bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da**  
(2023 yil yanvar-sentabr)




Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng kichik ulushlarni Yangiobod (0,7 %), Arnasoy (1,6 %) va Zafarobod (1,8 %) tumanlari qayd etdi.



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida (15 437,7 ming so'm) bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,3 foizni tashkil etdi.



**Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hududlar bo'yicha hajmi va o'sish sur'ati, % da**  
(2023 yil yanvar-sentabr)



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi Yangiobod (1 704,1 ming so'm), Zafarobod (2 327,4 ming so'm) va Arnasoy (2 375,6 ming so'm) tumanlarida kuzatildi.




2022 yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 104,4 foizni tashkil etdi, hajmi esa 56,2 mlrd. so'mga ko'paydi va 232,5 mlrd. so'mga yetdi.

Ushbu turdagi xizmatlarning pasayishiga dam olish uylari, bolalar lagerlari, kottedjlar va boshqa dam olish maskanlari xizmatlariga bo'lgan aholining talabi kamayganligi sezilarli ta'sir etganligini qayd etish lozim.




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da  
(2023 yil yanvar-sentabr)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmining asosiy qismini oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi (88,2 %) tashkil etadi.



Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'atlari  
(2023 yil yanvar-sentabr)




Qayd etish joizki, Zafarobod tumanida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,5 foizni tashkil qildi.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar jami xizmatlar hajmining 4,4 foizini tashkil etib 311,1 mlrd. so'm, ya'ni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 110,3 foizga o'sdi. Hududlar bo'yicha tahlil qilinganda Jizzax shahrida 110,9 foizga o'sib, bu sohada ytakchilik qilmoqda.



2023 yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha ta'lim sohasida ko'rsatilgan xizmatlarning o'sish sur'ati, foizda





Xizmatlar ko'rsatishning mazkur sohasida yuqori o'sish sur'atlari Jizzax shahri (110,9 %), Baxmal (110,7 %) va Paxtakor (109,1 %) tumanlarida kuzatildi.

2023 yil yanvar-sentabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar jami 139,2 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 103,8 foizga o'sdi va jami xizmatlardagi ulushi 2,0 foizni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha tahlil qilinganda, eng yuqori o'sish sur'ati Forish (111,7 %), Zomin (110,0 %) va Sh.Rashidov (104,3 %) tumanida kuzatildi.



2023 yil yanvar-sentabr oylarida sog'liqni saqlash sohasida ko'rsatilgan xizmatlarning hududlar bo'yicha o'sish sur'ati, % da



2023-yil yanvar-sentabr oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi 139,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi 2,0 foizni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-sentabrga nisbatan o'sish sur'ati 3,8 foizni tashkil etdi.



**Taqqoslash uchun:**

2022- yil yanvar-sentabr oylarida ushbu xizmatlar hajmi 117,4 mlrd. so'mni yoki ularning umumiy hajmining 2,0 foizini tashkil etgan.

Sog'liqni saqlash sohasida ko'rsatilgan xizmatlarning hududlar bo'yicha sur'atlari solishtirilganida Zafarobod (98,7 %), Zarbdor (99,8 %), Arnasoy (92,3%) tumanlari past sur'atlarda ekanligini ko'rishimiz mumkin.